XALQ DEPUTATLARI BO‘STONLIQ TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2024 - yil 16 - fevral VI-104-30-10-136-K/24 Bo‘stonliq tuman hokimligi

Bo‘stonliq tumanida 2024-yil uchun mol-mulkini ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 886-son Qonunining 12-moddasida mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqlari to‘liq hajmda tuman budjetiga o‘tkazilishi belgilangan.

Shuningdek, mazkur moddada xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tumanlar hamda shaharlarning ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsiyentlarni joriy etishga haqliligi ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 886-son Qonunining 12-moddasiga asosan Davlat soliq inspeksiyasining Bo‘stonliq tumani bo‘limining 2024-yil 6-yanvardagi 19/6-00053-sonli murojaati hamda Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2023-yil 9-yanvardagi 72-sonli bayonini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Bo‘stonliq tumani Kengashi **qaror**

qiladi:

1.O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 886-son Qonunining 12-moddasiga asosan Davlat soliq inspeksiyasining Bo‘stonliq tumani bo‘limining 2024-yil 6-yanvardagi 19/6-00053-sonli murojaati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Bo‘stonliq tumanida 2024-yil uchun mol-mulkini ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 1-ilovaga;

mol-mulkini ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalar qo‘llaniladigan tumanning mahallalari ro‘yxati 2 va 3-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (E.Turobov), Davlat soliq inspeksiyasi tuman bo‘limi (Z.Zokirov) belgilangan hududlarda jismoniy shaxslar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqlari to‘liq hajmda tuman budjetiga o‘tkazish choralarini ko‘rsinlar.

4.Tuman hokimligi Axborot xizmati (Y.Abdullayev), “Bo‘stonliq ovozi” gazetasi (A.Kulbayev) mazkur qarorni tuman hokimligi rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar va tuman gazetasida yoritilishini ta’minlasinlar.

5.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Abduvoxidov va xalq deputatlari Bo‘stonliq tumani Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (E.Yuldashboyev) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **J.Axmedov**

Xalq deputatlari Bo‘stonliq tuman
Kengashining
2024-yil 16-fevraldagi
VI-104-30-10-136-K/24-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Bo‘stonliq tumanida mol-mulkini ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari

T/r.	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich	Oylik ijara to‘lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, *so‘mda*	
			Birinchi toifadagi mahallalar uchun	Ikkinchi toifadagi mahallalar uchun
1.	**Binolar:**			
	turar joy	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun	19 000	12 000
	noturar joy		32 000	23 500
2.	**Avtomobil transporti:**			
	engil avtomobil (yo‘lovchilar, bagaj tashishga mo‘ljallangan hamda haydovchi o‘rnini hisoblamaganda, o‘rindiqlari soni 8 tadan ko‘p bo‘lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	780 000	
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1 550 000	

Xalq deputatlari Bo‘stonliq tuman
Kengashining
2024-yil 16-fevraldagi
VI-104-30-10-136-K/24-son qaroriga
2-ilova

Bo‘stonliq tumanida mol-mulkini ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun alohida stavkalar belgilangan birinchi toifadagi mahalla fuqarolar yig‘inlari

RO‘YXATI

T/r.	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Sektor raqami
1.	Birlik	2
2.	Qoronqul	2
3.	Kichiksoy	2
4.	Qizil-suv	2
5.	Xo‘jakent	2
6.	Fazogir	4
7.	Do‘stlik	4
8.	Besh tut	4
9.	S.Xondayliqiy	3
10.	Ko‘k-to‘nli	3
11.	Chimboyliq	2
12.	G‘azalkent	2
13.	Namuna	2

Xalq deputatlari Bo‘stonliq tuman
Kengashining
2024-yil 16-fevraldagi
VI-104-30-10-136-K/24-son qaroriga
3-ilova

Bo‘stonliq tumanida mol-mulkini ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun alohida stavkalar belgilangan ikkinchi toifadagi mahalla fuqarolar yig‘inlari

RO‘YXATI

T/r.	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Sektor raqami
1.	Ugam	2
2.	Xumson	2
3.	Qapal	2
4.	Chinor	2
5.	Sijjak	4
6.	Chimgan	4
7.	Yangiqo‘rg‘on	4
8.	Bolodala	4
9.	Bog‘iston	4
10.	Burchmullo	4
11.	Novobod	4
12.	Nanay	4